
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 3

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

БЕКПЎЛАТ УМУРҚУЛОВ
Бадиий нутқ – лингвистик тадқиқотлар манбаи 7

НЮБАР ХАКИМОВА
Традиционное врачевание или логманство,
концептуальные и практические направления 15

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Синтагматика согласных фонем в узбекском языке
(На материале финальных двучленных сочетаний) 18

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVICH
Teolingvistik g‘oyalarning onomasiologik tadqiqotlarda aks etishi 23

САМАНДАРОВ РУСТАМ ДЎСЁРОВИЧ
Синтактик деривация жараёни ва аппликатив модел 25

TURDIMURODOV SIROJIDDIN ESHQOBILOVICH
Xususiyat, hajm-o‘lchov va hid bildiruvchi
evfemik birliklarning lingvistik xususiyatlari 29

АЛИМАРДАНОВ ЭЛЁР ИЛХОМ ЎҒЛИ
Хоразм диалектал зонасидаги ўзбек ва туркман тиллари
контактларини ўрганишнинг назарий асослари 32

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
O‘zbek tilida lisoniy shaxsni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar 37

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar presuppozitsiyasi 41

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMRAQULOVNA
Zulfiya she’riyatida ayrim frazemalarning qo‘llanish xususiyatlari haqida 45

XUDAYBERGANOVA DILDORA KULMAMATOVNA
O‘zbek tilida zoonimlarning semantik-funksional tahlili
(Ogahiy asarlaridagi zoonimlar misolida) 49

М У Н Д А Р И Ж А

JO‘RAYEVA NASIBAXON G‘ANIYEVNA
Tarixiy asarlar leksikasida eskirgan so‘zlar tizimi 52

XAYDAROVA XURSHIDA
Takroriy taqlid so‘zlar klassifikatsiyasi
(Besh jildli o‘zbek tilining izohli lug‘ati asosida) 57

АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА ВАПАЕВА
Периоды формирования новейших
слов в узбекском и русском языках 61

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Адабиётшунослик терминларини ўзбекчалаштириш муаммолари 65

JABBOROV ESHNAZAR
Jahon ma’rifatchiligining sharqona tamoyillari 69

ҚУРОНОВ САЪДУЛЛО ДИЛМУРОДОВИЧ
Ўтиш даври романлари ва инсон концепцияси 71

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TAKRORIY TAQLID SO'ZLAR KLASSIFIKATSIYASI (BESH JILDLI O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI ASOSIDA)

Xaydarova Xurshida,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi,
Qarshi shahridagi Prezident maktabi o'qituvchisi

Taqlid so'zning takroriy shakli so'z leksik ma'nosini davomiylik, bir necha marotaba sodir bo'lganlik, kuchlilik, balandlik, cho'ziqlik kabi qo'shimcha ma'nolar bilan boyitish imkonini beradi. Mazkur maqolada "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga kiritilgan takroriy taqlid so'zlarni statistik tahlil qilib, ularning mazmuni bilan bog'liq farqli tomonlarni yoritib beramiz.

Ma'lumki, til inson tafakkuri sifatini ta'minlashga va istalgan obyektga nisbatan mantiqan to'g'ri o'ylashga o'rgatadi. Bu uning me'yor va qoidalari yordamida, shuningdek, simvollar sifatida namoyon bo'ladigan belgilar yordamida amalga oshadi. Shuning uchun obyekt qanchalik murakkab bo'lsa, u shunchalik murakkab belgilar tizimi orqali aks etadi. Bilish obyektining real murakkabligi tadqiqi tilning ilmiy tahliliga bog'liq va bunda til ongni ifodalovchi shakl va vosita ekanligi ko'zga yaqqol tashlanadi[1].

5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da pometa bilan berilgan takroriy taqlid so'zlar 96 tani tashkil qiladi. Ulardan 76 tasi 79% takroriy tovushga taqlid so'z, 10 tasi 11% takroriy holatga taqlid so'z, 5 tasi 5% *tasv.s.* pometasi bilan berilgan takroriy holatni ifodalovchi taqlid so'z, 5 tasi 5% takroriy ham tovush, ham holatni ifodalovchi taqlid so'z. Yuqorida raqamlarda ko'rsatib o'tilgan takroriy taqlid so'zlarning har bir ma'no turlarini lug'atlarda mavjud asos bilan ko'rsatib o'tamiz.

1. *Taql.s.* pometasi bilan kiritilgan tovushni ifodalovchi takroriy taqlid so'zlar: *ang-ang, bidir-bidir, biyov-biyov, biz-biz, bilch-bilch, big'-big', gum-gum, he-he-he, hiring-hiring, hi-hi, hu-hu, ho'ngir-ho'ngir, ho'ng-ho'ng, ivir-shivir, kakir-kakir, kars-kars, kirt-kirt, kurs-kurs, kurt-kurt, ming'ir-ming'ir, pat-pat, pilch-pilch, pirs-pirs, pish-pish, por-por, qaq-qaq, qig'-qig', quldur-quldur, qul-qul, qu-qu, taqa-taq, tiqir-tiqir, varaq-varaq, vaq-vaq, vaqir-vaqir, vijir-vijir, xir-xir, xi-xi, xur-xur, xo'r-xo'r, zuv-zuv, g'id-g'idok, g'ivir-g'ivir, g'o'ng'ir-g'o'ng'ir, chax-chax, chag'-chag', chiyov-chiyov, chiy-chiy, chilp-chilp, chuldir-chuldir, baka-bang, bag'-bug', dang-dung, dang'-dung', darang'-durung', jangir-jungur, kasir-kusur, patir-putur, ping-pong, qart-qurt, taka-tum, takir-tukur, tapir-tupur, taraqa-turuq, tars-turs, tasir-tusur, vaqir-vuqur, vag'ir-vug'ur, g'ajir-g'ujur, g'art-g'urt, g'aq-g'uq, shapir-shupur, shap-shup, shatir-shutur, shovur-shuvur, chatir-chutur, chaq-chuq, chag'ir-chug'ur*[2].

2. *Taql.s.* pometasi bilan berilgan holatni ifodalovchi takroriy taqlid so'zlar: *hars-hars, jivir-jivir, lapang-lapang, likang-likang, lors-lors, mildir-mildir, mo'lt-mo'lt, g'ivir-g'ivir, g'imir-g'imir, yalt-yult*[3].

3. *Tasv.s.* pometasi bilan berilgan holatni ifodalovchi takroriy taqlid so'zlar: *bij-bij, bilq-bilq, diring-diring, jaraq-jaraq, pitir-pitir*[4].

4. *Taql.s.* pometasi bilan berilgan ham holatni, ham tovushni ifodalovchi takroriy taqlid so'zlar: *bi-jir-bijir, biq-biq, vij-vij, g'ij-g'ij, taqir-tuqur*[5].

Lug'atlarda mavjud takroriy taqlid so'zlarning ba'zilari sodda shaklda ham, takroriy shaklda ham qo'llanila olsa, ba'zi takroriy taqlid so'zlar esa faqat takroran qo'llaniladi. Ularning bir so'z bilan qo'llanilish holatlari kuzatilmaydi. O'rganishlarimiz natijasida takroriy taqlid so'zlarning qo'llanilish imkoniyatlari sodda taqlid so'zlarga nisbatan kengligini asosli yangilik sifatida ayta olamiz. Sababi barcha sodda taqlid so'zlarning takroriy shakli mavjud, shuningdek, sodda shakli so'zlashuvda uchramaydigan takroriy taqlid so'zlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan, *do'qir, duk, chug'ur* kabi taqlid so'zlar sodda shaklda ham, takroriy shaklda ham qo'llanilsa, *bilq-bilq, hi-hi, chax-chax* kabi taqlid so'zlar hamisha takror shaklda qo'llaniladi.

Sodda shaklda ham, takroriy shaklda ham kela oladigan, shuningdek, lug'atda xuddi shunday shaklda kiritilgan taqlid so'zlardan ba'zilarini fikrimizga asos sifatida keltirib o'tamiz:

DO'QIR *Qo'qon aravaning do'qiri qursin, – vaysadi Lutfiniso.* Oybek, Tanlangan asarlar.

[1] Ўзбек тилшунослиги: тараққиёт тамойиллари, илмий муаммолар, истиқболдаги вазифалар. – Тошкент, 2013. – Б. 24.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.

[3] Келтирилган манба. 5 жилдли. 2006-2008.

[4] Келтирилган манба. 5 жилдли. 2006-2008.

[5] Келтирилган манба. 5 жилдли. 2006-2008.

DO‘QIR-DO‘QIR *Oloy yo‘li o‘nqir-cho‘nqir, mashinalar do‘qir-do‘qir, kuydik bu yo‘lning dastidan.* “Mushtum”.

CHUG‘UR *Qushlarning chug‘urini, buloqlar jilg‘asining shildiraganini eshitgandek bo‘lardi.* S. Ahmad, Jimjitlik.

CHUG‘UR-CHUG‘UR *Hovli jimjit, faqat sathida nasibasini terib yurgan musichalarning kukusi-yu, chumchuqlarning chug‘ur-chug‘urigina jimjitlikni buzadi.* “Yoshlik”.

DUK *[Latif] Chelakdan ikkinchi shishani olib tagiga bir urdi-da, Sultonning oldiga “duk” etkazib qo‘ydi.* O.Yoqubov, Larza.

DUK-DUK *Avvaliga u [soqchi] asta-sekin yurib bordi, keyin Nasriddin afandining qulog‘iga duk-duk qilgan ovoz eshitildi*[1]*.* “Mushtum”.

Faqat takror shaklda kela oladigan, lug‘atda ham aynan shu shaklda kiritilgan taqlid so‘zlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Masalan,

BILQ-BILQ *Yo‘l juda og‘ir. Havo issiq, dim va chang. Bilq-bilq issiq tuproqqa botib bormoqdamiz.* Oybek, Bolalik.

HI-HI *“Yengiltak” deb so‘kindi Saidg‘ozi ichida. Bo‘lmasa, qalamning uchi sinsa ham hi-hi-himi!..* S. Anorboyev, Oqsoy.

CHAX-CHAX *Bu yetmagandek, hovlining huv etak tomonidan baralla bulbullar chax-chaxi eshitila boshladi*[2]*.* A. Muxtor, Buxorolik bir yigit.

5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da *taql.s.* pometasi bilan berilgan so‘zlar ichidan 84 tasi 81% faqat takroriy tarzda *(ang-ang, bidir-bidir, biyov-biyov, biz-biz, bilch-bilch, big‘-big‘, gum-gum, he-he-he, hiring-hiring, hi-hi, ho‘ngir-ho‘ngir, ho‘ng-ho‘ng, ivir-shivir, kakir-kakir, kars-kars, kirt-kirt, kurs-kurs, kurt-kurt, ming‘ir-ming‘ir, pat-pat, pilch-pilch, pirs-pirs, pish-pish, por-por, qaq-qaq, qig‘-qig‘, quldur-quldur, qulqul, qu-qu, taqa-taq, tiqir-tiqir, varaq-varaq, vaq-vaq, vaqir-vaqir, vijir-vijir, xir-xir, xi-xi, xur-xur, xo‘r-xo‘r, g‘id-g‘idok, g‘ivir-g‘ivir, g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir, chax-chax, chag‘-chag‘, chiyov-chiyov, chiy-chiy, chilp-chilp, chuldir-chuldir, hars-hars, jivir-jivir, lapang-lapang, likang-likang, lors-lors, mildir-mildir, mo‘lt-mo‘lt, g‘ivir-g‘ivir, g‘imir-g‘imir, bij-bij, bilq-bilq, diring-diring, jaraq-jaraq, pitir-pitir, bijir-bijir, biq-biq, vij-vij, g‘ij-g‘ij, baka-bang, bag‘-bug‘, darang‘-durung‘, jangir-jungur, kasir-kusur, patir-putur, ping-pong, qart-qurt, taka-tum, takir-tukur, tapir-tupur, tasir-tusur, vaqir-vuqur, vag‘ir-vug‘ur, shapir-shupur, chatir-chutur, chaq-chuq, chag‘ir-chug‘ur, taqir-tuqur*[3]*)* foydalaniladi va shu shaklda kiritilgan. Aniqlangan ushbu misollarga asoslanib, 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga asosan takror shaklda uchraydigan taqlid so‘zlargina kiritilganligi haqidagi fikrni ilgari suramiz. Ehtimol, ham sodda, ham takroriy shaklga ega bo‘lgan taqlid so‘zlarning takroriy varianti izohli lug‘atlarda lug‘aviy birliklar soni haddan tashqari oshib ketishining oldini olish maqsadida kiritilmagan. Takroriy taqlid so‘zlarning ma’nosini tushunishda ularning sodda shakli asosidan anglashilib turgan ma’noga asosiy e’tibor qaratish maqsad qilingan. Shuningdek, ayrim sodda taqlid so‘zlar illyustrativ misollarida ularning takroriy variantlari ishtirokidagi misollar ham kiritilgan o‘rinlar mavjud.

Izohli lug‘atlarda takroriy taqlid so‘zlar sodda taqlid so‘zlar miqdori bilan taqqoslaganda ozchilikni tashkil etadi. Ko‘pchilik sodda taqlid so‘zlarning takroriy varianti alohida so‘z sifatida kiritilmagan. Masalan,

GUV *Kostyum yana bitmabdi. Avvaliga shu jumlani eshitib, quruq o‘tinday guv etib yonib ketdim.* S.Abduqahhor, Sanamay sakkiz dema.

GULDUR *Guldur etib, bulut tarqab, yalt-yult etib chaqmoq chaqdi.* Hamza.

GURS *Allaqayda ko‘tarma kranning chiyillagani, so‘ng gurs etib to‘xtagani eshitildi.* S.Siyoyev, Yorug‘lik.

INGA *Temir yo‘l ishchilari turadigan tunuka tomli umumiy yotoqxonaning chekkadagi xonasidan go‘dak ingasi, Hadyaning allasi eshitilardi.* Sh. Toshmatov Erk qushi.

JIRING *Pulga o‘ch u, yoningizda tanga jiring etsa, “labbay gapirdingizmi?” deb turadigan odam.* A. Muxtor, Tug‘ilish.

MIYOV *Sidiqjon shunday qattiq kuldiki, burchakda kulcha bo‘lib yotgan mushuk shoshib o‘rnidan turdi va Sidiqjonga qarab “miyov” dedi.* A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

QAG‘ *Qarg‘a qag‘ etadi, o‘z vaqtini chog‘ etadi.* Maqol.

TO‘P *Olma to‘p etib yerga tushdi. Tashqarida bir narsa to‘p etdi*[4]*.*

Yuqoridagi taqlid so‘zlar umumxalqda takror shaklda ham ko‘p uchraydi. Lekin ularning takror shakli so‘zlik maqomida berilmagan.

Shuningdek, izohli lug‘atda ayrim sodda taqlid so‘zlar *taql.s.* pometasi bilan, ularning takror shakli esa pometasiz kiritilgan o‘rinlarga to‘xtalamiz. Masalan,

QIRS *taql.s. Yonboshidagi jiyda butoqchasini qirs etib sindirib oldi.* Sh. Xolmirzayev, To‘lqinlar.

QIRS-QIRS *Tun sovug‘i bilan qo‘shilgan loy oyoq ostida siniq shisha parchasi kabi qirs-qirs ushaladi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

QIRT *taql.s. Tursunoy tugmagulni ikki barmoq orasiga olib, qirt etib uzdi.* A.Muxtor, Opa-singillar.

[1] Келтирилган манба. 5 жилдли. 2006-2008.
[2] Келтирилган манба. 5 жилдли. 2006-2008.
[3] Келтирилган манба. 5 жилдли. 2006-2008.
[4] Келтирилган манба. 5 жилдли. 2006-2008.

QIRT-QIRT *U boshini qirt-qirt qashigancha eslashga urindi.* N. Maqsudiy, Laylatulqadr.

QISIR *taql.s. U o‘tirgan stul qisir etdi.*

QISIR-QISIR *O‘zim tashiyotgan aravalarning qisir-qisiri eshitildi.* H.Nazir, Cho‘l havosi.

QIQIR *To‘rtta bola ko‘chada qiqir..qiqir.. – sanlarga nima jin urdi? – dedim.* Yoshlik.

QIQIR-QIQIR *Terimchilar o‘zaro nimalarnidir pichirlab, qiqir-qiqir kulishdi.* H. Nu’mon, Fasllar.

TIQ *taql.s. Men.. xizmat qilib turibman. Tiq etgan choynak bejavob qolmaydi, – dedi shum bola*. G‘.G‘ulom, Shum bola.

TIQ-TIQ *Yong‘oqli bog‘ eshigin chaqirdi tiq-tiq urib. Barvasta bo‘yli kishi chiqdi: Kim? deb hol so‘rib.* K. Muhammadiy..

VIT *taql.s. Bedananing “vit” degani-qochgani* Maqol.

VIT-VIT *Har tomondan “vit-vit”, “chig‘i-chig‘i” deb sayragan qushlarning turli qo‘shiqlari soyning nash’asiga mos bir muzika hosil qilgan.* P. Tursun, O‘qituvchi.

ZIR *taql.s. Ruhli, kuchli ko‘krakdan chiqqan bu ashula tevarakni zir ettirib yuborgudek, Otabekka ham boshqacha bir ta’sir beradir.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar.

ZIR-ZIR *Zir-zir qaltiragan Gulnor sho‘rvani nariberi suzib keldi*[1]. Oybek, Tanlangan asarlar.

Yuqoridagi so‘zlarning asl ma’nosini tasavvur qilish o‘zbek tilini yaxshi bilgan yoki shu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib boruvchi omma uchun hech qanday muammoni yuzaga chiqarmaydi. Biroq masalaga boshqa tomondan qaraydigan bo‘lsak, lug‘at boyligi yetarli bo‘lmagan, yoshi kichik foydalanuvchilar, shuningdek, o‘zga til foydalanuvchilari uchun bir qator qiyinchiliklarni va mavhumlikni keltirib chiqarishi mumkin. Sababi o‘zbek tilining boyligini, nutq uslublarini, so‘zlarning turli ma’no nozikliklarini anglata olish imkoniyatlarini hisobga oladigan bo‘lsak, ulardagi leksemaning matndagi ma’nosi, lug‘atda berilgan leksema ma’nosidan biroz farq qiladi, albatta. Yuqoridagi sodda va takroriy taqlidlar tarkibidagi illyustrativ misollarda ham taqlid so‘zlar mazmunan biroz farq qiladi. Bu holat leksik ma’noni aniqlashda ancha vaqt sarflanishiga olib kelishi mumkin. O‘zbek tilining lug‘at sostavi umumxalq tilining barcha so‘z boyliklarini, undagi tarixiy-traditsion, turkum qatlamlarini, yangi, zamonaviy leksikani, endi paydo bo‘layotgan eng yangi so‘zlarni ham qamraydi. Bu tilning ahvolidan, qandayligidan dalolat beradi. Lug‘at sostavi qanchalik boy va xilma-xil bo‘lsa, til ham shunchalik taraqqiy etgan bo‘ladi[2]. Yechim sifatida shuni taklif qila olamizki, takroriy taqlid so‘zlarga ham izohli lug‘atning yangi nashrlarida pometa kiritilishi leksema ma’nosini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Taqlidiy so‘zlar borliqdagi jonli va jonsiz narsalarning ixtiyoriy hamda ixtiyorsiz ravishda chiqargan tovushlarini taqlidan ifodalaydi. So‘zlarning ma’lum turkumlarga ajralishi qotib qolgan, o‘zgarmaydigan hodisa emas. O‘zbek tili grammatik qurilishining rivojlanishi, yangi grammatik xususiyatlarning asta-sekin to‘plana borishi natijasida bir turkumdagi ayrim so‘z boshqa turkumga o‘tishi mumkin. So‘zlarning bunday o‘zaro o‘tish hodisasi so‘zning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarning o‘zgarishi bilan bog‘langan[3].

Mazkur maqolamizda takroriy so‘zlar bilan bog‘liq yana bir masalaga e’tibor qaratmoqchimiz. Asli taqlid so‘z turkumiga mansub, lekin ham sodda, ham takroriy shakli pometasiz kiritilgan taqlid so‘zlar ham izohli lug‘atda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ushbu leksemalarning ayrim hollarda qo‘llanilish doirasi chegaralanganligi, ko‘p ma’noliligi yoki omonimligi so‘z ma’nosini belgilash imkonini kamaytiradi. Ayrimlariga namuna keltirib o‘tamiz. Masalan,

BILANG-BILANG *Baliqday bilang-bilang qilib, goh unisi o‘zib ketadi, goh bunisi.* H. Nazir, Yonar daryo.

JIZ *Bu gapdan Nusratillaning tani jiz etib ketdi, Turdimat cho‘talni yeb tashlaguday qarab, ko‘nglidagini bildirib qo‘ydi.* A.Muxtor, Opa-singillar.

JIZ-JIZ *Asalari hamma yog‘imni jiz-jiz chaqib tashladi*.

JIMIR *“Genka oyisini topibdi” degan xabar bir zumda butun batalyonga tarqaldi. Bu xabarni eshitganimda, mening hayajonlanganimni aytmaysizmi. Etim jimir etib ketdi.* A. Ubaydullayev, Qonli izdan.

JIMIR-JIMIR *Go‘yo hisobsiz yulduzlarni o‘z og‘ushiga olgandek, jimir-jimir oqadi Qashqa.* S.Nurov, Durdona. *Gavhar, ko‘lning jimir-jimir to‘lqinlariga tikilib, bir lahza jim qoldi.* P.Qodirov, Uch ildiz.

LIK *Qiyomxon ham lik etib o‘rnidan turdi.* N.Aminov, Suvarak.

LIK-LIK *Chumchuqmi, chittakmi, betinim lik-lik qiladi, yana yo‘q bo‘lib qoladi.* I. Qalandarov, Shoxidamas, bargida.

LIP *Davlatyor lip etib otga mindi-yu, bir nafasda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.* P.Tursun, O‘qituvchi.

LIP-LIP *Otlarning yoliga tegay-tegay deb sinchalaklar lip-lip uchib o‘tardi.* S. Anorboyev, Oqsoy.

LO‘Q *Umid kirganda ham, chiqqanda ham ko‘zlarini lo‘q qilib turuvchi bu xotinni avvallari xush ko‘rmasdi.* Mirmuhsin, Umid.

LO‘Q-LO‘Q *Zo‘r berib malham surganiga ham qaramay, (jarohat) xasmoldek lo‘q-lo‘q alam berardi.* Mirmuhsin, Cho‘ri.

[1] Келтирилган манба. 5 жилдли. 2006-2008.

[2] Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 42.

[3] Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009.

PICHIR *Gapning yomoni pichir, etning yomoni qichir.* Maqol. *Yonimda o‘tirgan ikki qizning pichiri qulog‘imga chalindi.* M. Jaloliddinova, Jur’at.

PICHIR-PICHIR *O‘tirib, kitobni tizzasiga qo‘ydi va pichir-pichir duo o‘qib, yuzini siypadi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

TORS *Ayvon ham qiyshayib qolgan. Uning devorlari ham tors yorilgan, polda devordan tushgan suvoq parchalari yotibdi.* I. Rahim, Tinimsiz shahar.

TORS-TORS *Quyoshning olovli taftida tors-tors yorilib, osmondan tomchi tushishida o‘z najotini kutib turgan bu asriy cho‘llarda hech yurganmisiz?* S. Nurov, Durdona.

CHUVUR *Ko‘chadagi xotinlar chuvuri, bolalar yig‘isi yuragiga vahm solardi.* M. Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha.

CHUVUR-CHUVUR *Lak-lak odam. Chuvur-chuvur qilib, allanimalarni gaplashishadi*[1]. O‘. Hoshimov, Ikki eshik orasi.

Yordamchi va oraliqdagi so‘zlar aniq atash ma’nosiga ega bo‘lmaganligi sababli ularning qo‘llanilish o‘rni va ma’nosini aniqlash bilan bog‘liq mavhumlik hamisha mavjuddir. Matn ichidagina qaysi o‘rinda kelayotganligini yoki boshqa so‘zlar bilan birgalikda qanday ma’no anglatayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu so‘zlarda ba’zi hollarda omonimlik, ko‘p ma’nolilik hodisalari ham uchrashi so‘z ma’nosi bilan bog‘liq turli chalkashliklarni yanada oshiradi. So‘zlarning uslubiy xoslanganligi, umumxalqda tor doirada qo‘llanilishi ham ko‘p hollarda kuzatiladi. O‘zbek tilining leksik qatlamini aniqlash uchun so‘zlarning qaysi sohada qo‘llanishiga, davr-zamonga ko‘ra iste’mol etilishiga va so‘z turkumlari jihatidan tarkibiga e’tibor berish lozim[2]. Lug‘atlarda yordamchi va oraliqdagi so‘zlarni berishda ularning har bir ma’nosiga (umumxalqda qo‘llanilish o‘rni, turli uslublarda va shevalarda kelish o‘rniga) imkon qadar illyustrativ misol berish, tavsifini kengaytirish, so‘zlarning turkumiga aniqlik kiritish lug‘at foydalanishda yengillikka, lug‘at imkoniyatlari (tezlik, aniqlik, xolislik) oshishiga xizmat qiladi.

Rezyume: Mazkur maqolada 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga kiritilgan takroriy taqlid so‘zlarni umumlashtirib har tomonlama (miqdori va ma’no turiga ko‘ra tasnifi, so‘zlarning berilishi bilan bog‘liq farqli yondashuvlarni) ko‘rsatib berdik. Lug‘atda *taql.s.* pometasi bilan yoki pometasiz berilgan takroriy taqlid so‘zlarni, sodda taqlid so‘zlarning turkumda berilishi, ularning takroriy variant turkumsiz berilish o‘rinlarini ham qiyosiy tahlil qildik. Mazkur maqolamiz taqlid so‘zlarni tuzilish turiga ko‘ra lug‘atlarga kiritilishi, kelgusida rivojlantirilishi bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganishga xizmat qiladi.

Resume: This article summarizes repeated imitation words included in the 5-volume “Annotated dictionary of the Uzbek Language” and comprehensively examines (classification according to the amount and type of meaning, different approaches to the presentation of words) we showed. We have also compared repeated imitation words given with or without sign, simple imitation words in the series and their places of presentation without repeated variant series. This article serves to study the processes related to the inclusion of imitation words in dictionaries according to the type of structure and their further development.

Резюме: В данной статье обобщены повторные слова-имитации, вошедшие в 5- томный “Аннотированный словарь узбекского языка” , и всесторонне рассмотрены (классификация по количеству и типу значения, различные подходы к изложению слов) показанные нами. Данная статья служит изучению процессов, связанных с включением слов-имитаторов в словари по типу структуры и их дальнейшему развитию.

[1] Келтирилган манба. 5 жилдли. 2006-2008.

[2] Пинхасов. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969.